

Shavkat Mirziyoev Samarqanddagi turizm markazini borib ko'rdi



Prezident Shavkat Mirziyoev Samarqand tumanida barpo etilayotgan turizm markazi qurilishini ko'zdan kechirdi.

Ushbu majmua Samarqand tumanidagi eshkak eshish kanali bo'yida, 212 gektar maydonda qurilmoqda. Loyihaga ko'ra, bu yerda 10 ta inshoot, jumladan, kongress xoll, mehmonxonalar, dam olish maskanlari bo'ladi.

Ayni paytda kongress xoll, "Abadiy shahar" karvon saroyi va 8 ta mehmonxona bunyod etilmoqda. Mehmonxonalarning ikkitasi 22 qavatli, besh yulduzli, qolganlari to'rt yulduzli bo'ladi.

Ma'lumki, Samarqandda mehmonxonalar ko'p bo'lishiga qaramay, sayyohlar ko'p kelganda o'rinlar yetishmay qoladi. Masalan, 2019-yilda shahardagi barcha otellar band bo'lgan. Davlatimiz tomonidan turizm rivojiga katta imkoniyatlar yaratilayotgani, 90 ga yaqin mamlakat fuqarolariga vizasiz rejim joriy qilingani turistlarni yanada ko'proq jalb etmoqda.

Qurilayotgan markaz turistik xabga aylanadi. Bu yerda xalqaro anjumanlar o'tkazish uchun ham keng sharoit bo'ladi. Uni 2022-yilda foydalanishga topshirish mo'ljallangan.


Prezidentimizga mazkur yangi sayyohlik markazi imkoniyatlari, turistlarga ko'rsatiladigan xizmatlar haqida ma'lumot berildi. Davlatimiz rahbari markaz boshqaruvini samarali tashkil etish, turizm sohasida mutaxassislar tayyorlash bo'yicha topshiriqlar berdi.

Shu yerda Samarqandning turizm infratuzilmasini rivojlantirish loyihalari taqdimot qilindi.

Samarqand shahrida ilk bor gastronomik ko'cha, Samarqand tumani "Konigil" mahalla fuqarolar yig'inida yurtimizdagi birinchi turizm qishlog'i tashkil etildi. Bunday maksanlar sayyohlarning viloyatda qolish vaqtini

uzaytirish bilan birga, hudud infratuzilmasini rivojlantirish, aholiga daromad manbai yaratishda muhim omil bo'lmoqda.

Davlatimiz rahbari mazkur turistik markazni shahar bilan bog'laydigan yo'l o'tkazgichni borib ko'rdi, Usta Umar Jo'raqulov va Afrosiyob ko'chalarida amalga oshirilayotgan obodonlashtirish ishlarini ko'zdan kechirdi.









Manba